

## **Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlari**


*2025-yil yanvar-mart oylari uchun*

- I.* Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II.* Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III.* Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV.* Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### **I. Jami bajarilgan qurilish ishlari**

2025-yilning yanvar-mart oylarida, Tashkent shahrida jami 13 750,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ni tashkil etdi.

#### **Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi**



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent sh.</b>	<b>13 750,0</b>	<b>122,0</b>
Bektemir	281,5	134,8
Mirzo Ulug'bek	1 228,9	101,6
Mirobod	983,6	100,9
Olmazor	694,4	102,2
Sergeli	430,3	127,5
Uchtepa	358,5	137,5
Chilonzor	791,9	112,4
Shayxontohur	966,3	143,1
Yunusobod	1 846,0	136,3
Yakkasaroy	1 344,9	164,6
Yangi hayot	259,8	142,5
Yashnobod	965,4	110,3
Taqsimlanmagan hajm	3 598,2	120,2


**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)  
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlarinining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,2 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 135,4 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 15,2 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	2 304,0	1 114,7	666,8
o'sish sur'ati, %	168,8	2,1 m.	137,7
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	4 837,5	1 253,6	1 426,5
o'sish sur'ati, %	96,3	102,9	115,4
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 146,7	-	-
o'sish sur'ati, %	126,2	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4 085,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 176,4 % ni va ularning umumiyligi hajmdagi ulushi 9,1 % ga ko'payib, 29,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,7 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etgan holda 7 517,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 15,6 % ni yoki 2 146,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 127,7 % ni tashkil etdi.

#### Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



## Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd. so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
<b>Toshkent sh.</b>	<b>4 085,6</b>	<b>7 517,6</b>	<b>2 146,8</b>	<b>176,4</b>	<b>103,3</b>	<b>127,7</b>
Bektemir	104,4	132,8	44,3	2,9 m.	88,6	189,9
Mirzo Ulug'bek	135,3	987,0	106,6	143,5	98,2	96,2
Mirobod	189,3	658,6	135,7	61,9	108,0	2,3 m.
Olmazor	211,6	430,8	52,1	113,2	99,5	86,7
Sergeli	40,9	265,0	124,4	70,5	128,3	171,0
Uchtepa	89,5	148,3	120,7	5,8 m.	77,8	2,2 m.
Chilonzor	194,6	552,5	44,8	2,1 m.	100,2	76,6
Shayxontoxur	603,0	304,2	59,1	148,1	138,3	122,4
Yunusobod	1 010,2	768,3	67,5	184,5	106,0	82,4
Yakkasaroy	678,5	605,9	60,5	5,9 m.	93,1	116,0
Yangihayot	62,6	118,4	78,8	3,1 m.	115,4	132,2
Yashnobod	138,0	760,1	67,3	2,1 m.	103,4	92,1
Taqsimlanmagan hajim	627,7	1 785,6	1 185,0	170,3	105,3	127,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin eng yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 5,9 m.), Uchtepa tumanida (5,8 m.) va Yangihayot (3,1 marta) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin eng yuqori o'sish sur'atlari Shayxontohur tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 138,3 %), Sergeli tumani (128,3 %) va Yangihayot (115,4 %) kuzatildi.

#### IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quydagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Toshkent shahri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
N. O'narov  
71 203-88-18 (3522)

**Manzil:**

